

XX ASR BOSHLARIDA SHIMOLIY AFG'ONISTONDAGI O'ZBEK BEKLIKlARI UCHUN RAQOBAT VA O'ZARO MUNOSABATLAR TARIXI

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti Tarix va filologiya kafedrasi dotsenti, t.f.f.d., (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163679>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklari uchun olib borilgan raqobat va Buxoro va Afg'oniston munosabatlari tarixi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, Buxoro, beklik, amir Shohmurod, Maymana, Amir Nasrullo, Amudaryo, "turkiston to'plami", Do'stmuhammadxon.

HISTORY OF COMPETITION FOR UZBEKISTAN PRIDE AND RELATIONS IN NORTHERN AFGHANISTAN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. This article provides a scientific analysis of the competition for Uzbek principalities in Northern Afghanistan at the beginning of the 20th century and the history of relations between Bukhara and Afghanistan.

Keywords: Afghanistan, Bukhara, principality, Emir Shahmurad, Maimana, Amir Nasrullo, Amu Darya, "Turkistan collection", Dostmuhammadkhan.

ИСТОРИЯ КОНКУРЕНЦИИ И ВЗАИМООТНОШЕНИЙ УЗБЕКСКИХ ЧАСТНЫХ ГОСУДАРСТВ В СЕВЕРНОМ АФГАНИСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В статье дается научный анализ борьбы за узбекские княжества в Северном Афганистане и истории взаимоотношений Бухары и Афганистана в начале XX века.

Ключевые слова: Афганистан, Бухара, княжество, Эмир Шахмурад, Маймана, Амир Насрулла, Амударья, «Туркестанский сборник», Достмухаммадхан.

Buxoro amirligi va Afg'oniston davlati tashkil topgan davrlardan boshlab, Shimoliy Afg'onistondagi 12 ta o'zbek bekliklari ikki davlat o'rtasidagi nizoli hudud bo'lsada, Amir Shohmurod Maymana va Oqchanning g'arbiy qismlarini Buxoro ta'sirida tutib turiga muvoffaq bo'lgan bo'lganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etib o'tilgan. Ammo, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Amir Nasrullo davrida Amudaryodan janubdagi o'zbek bekliklarini barcha erlarini 1849-1850 yillarda Do'stmuhammadxonga boy berib qo'yadi[1]. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni solishtirib xulosa qilish mumkinki, Do'stmuhammadxonning bu davrda Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklariga qarshi qo'shin torta olish imkoni yo'q edi. Chunki, Bu vaqtda Murodbek Qunduz Shimoliy Afg'oniston o'zbek bekliklarini birlashtirib katta harbiy qudratga ega bo'lgandi.

Murodbek, Do'stmuhammadxonga inglizlarga qarshi kurashda va Afg'oniston taxtini qaytarib olishda yordam berganligini inobatga olsak, yuqorida keltirilgan ma'lumot u qadar asosli emasligi ayon bo'ladi. "Turkiston to'plami"dagi ma'lumotlarda Do'stmuhammadxonning Qunduz begi Murodbek qatag'an bilan do'stona munosabatda bo'lganligi qayd etilgan. Muallif bu fikrni Do'stmuhammadxonning yaqin qarindoshlaridan biridan yozib olganligini, u esa, Do'stmuhammadxon boshqaruvida yuqori martabali shaxs ekanligi ham yuqorida keltirib o'tgan fikr-mulohazalarimizni tasdiqlashga xizmat qiladigan ma'lumot bo'lib hisoblanadi[2].

Ayrim tarixiy adabiyotlarda Do'stmuhammadxonga 1850 yilgacha Kobul va Jalolobod bo'ynsungan, 1855-yilda G'azna, Qandahor bo'ynsungan. 1856 yildagina (Murodbek Qunduz vafot etgach) Balx va Xulm, 1858 yilda esa, Oqcha, Shibirg'on, Andxoy, Maymana, 1861-yilda esa, Qunduz va Badaxshon vassal bo'lganligi qayd etiladi[3]. Qunduzga qilingan yurish vaqtida Murodbek Qunduz vafot etgan va Qunduzni Badaxshon mirlari bosib olib vassal beklikka aylantirganligi yuqorida qayt etilgan edi. Amir Nasrulloning 1860-yilda Karki hududiga qo'shin bilan kelganligi va ko'p o'tmay orqaga qaytgani tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tiladi[4]. Tarixiy manbalarda jumladan Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi silsiloti Mang'itiya" (Mang'it amirlari tarixi) asarining rus tilida chop etilgan variantining 155-sahifasida keltirilgan izohda 1859 yilda Buxoro (Nasrulloxon) va Afg'oniston (Do'stmuhammadxon) o'rtasida tuzilgan sulhga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi chegara Amudaryo bo'lganligi keltirib o'tiladi.

Ammo, izohni keltirgan tarjimon iqtibos keltirmaydi. shu sababli Do'stmuhammadxon Oqchani egallagan bo'lsada, Maymanani egallay olmagandi. Bu bilan amir Nasrullo sulh bilan hali Buxoro tarkibidan bo'lgan Maymnani afg'onlarga berib yuborganligi tushunarsiz holat ekanligiga e'tibor qaratmaydi[5]. Aslida bu holatni tushuntirishda "Turkestanskiy sbornik" ("Turkiston to'plami") materiallari yordam beradi. To'plamning XII tomida Vengr sayyohi A.Vamberi esdaliklari keltirib o'tilgan bo'lib, Do'stmuhammadxonning Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklari Badaxshon va Maymanani bo'ynsundira olmaganligi, Ayniqsa, Maymana kuchli qarshilik ko'rsatgani, Maymanalik o'zbeklarning Do'stmuhammadxon qo'shiniga 1862 yilda ko'rsatgan qarshiligi haqida afsonalar to'qilganligi, Maymana mustaqilligini saqlab qola olganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

A.Vamberi Do'stmuhammadxonning inglizlar bilan ittifoqligi va ulardan miltiq va to'plar olib turishi Buxoro amirini cho'chitgan deb keltiradi. Shuningdek, ochiq kurashga chiqmay afg'onlarni dindan qaytgan deb ataydi. Afg'on amirini dindan qaytgan deb e'lon qilishi Do'stmuhammadxonga qimmatga tushadi. 1862 yilda Hirotni bo'ynsundirish uchun bo'lgan jangda turkmanlar unga yordamga borishdan bosh tortadi[6].

Do'stmuhammadxon davrida ham Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklarining ko'pchiligi mustaqil siyosat yuritgan.

Jumladan, XIX asrning 50-yillariga tegishli Usmoli Turk davlati arxiv materiallarining birida Istanbulga Buxoro, Andxoy, Hirot hukumdorlarining elchilari birgalikda kelganligi qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. O'rta Osiyoda ingliz-rus raqobati avj olgan XIX asr o'rtalarida Buxoroga Rossiya imperiyasidan elchi va ayg'oqchi sifatida kelgan Demezov ma'lumotlarida ham XIX asrning 30-yillarida Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklaridan ayrimlari Buxoro amirligiga itoat etganligi bilan bog'liq ma'lumotlar uchrashining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Demezov esdaliklarida Buxoro amirligiga bo'yinsunuvchi o'zbek bekliklari qatoriga kiruvchi Shimoliy Afg'oniston hududida joylashgan Maymana shahri mavjudligi keltirib o'tilgan[7].

Sobiq sho'rolar davrida chop etilgan fundamental tarixiy adabiyotlarda esa, Temurshoh davrida Shimoliy Afg'oniston bekliklariga Eron Kajarlar sulolasi vakillari va Buxoro amirlarining hujumlari kuchayganligi, ingliz-afg'on urushidan qochib Buxoroga borgan Do'stmuhammadxonning Buxoroda bo'lganida unga asirdek muomalada bo'lingani, hayotini tahlikaga qo'yib Buxorodan qochishga muvoffaq bo'lganligi, Shimoliy Afg'oniston hududidagi o'zbek bekliklarini bo'yinsundirishi esa, 1850-1855 yillarga to'g'ri kelishi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratamiz[8].

Afg'onistonda Do'stmuhammadxon vafotidan so'ng taxtga o'g'illaridan biri Sheralexon (1862-1879 yy) o'tiradi. Garchi aka-ukalari orasida yoshi ulug'i bo'lmasada otasining Hirotga qilgan yurishi davrida uning yonida bo'lganligi va qo'shinlarning katta qismi uni qo'llab-quvvatlagani uchun taxt uchun kurashlarda Sheralexon g'alaba qozonadi. Sheralexon hukmronligining dastlabki davrida Angliya manfaatlariga mos tushuvchi chiyosat olib boradi.

Angliya bilan yaqinlashish unga moliyaviy va harbiy yordam olish imkonini beradi. Angliya o'z navbatida Afg'onistonni kuchli davlatga aylantirib, Rossiyaning Hindiston tomon harakatlanishini to'xtatishga, O'rta Osiyodagi ta'sirini pasaytirishga harakat qiladi. Bu o'sha davr manbalarida ham o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Turkiston to'plam"i materiallarining birida; "Angliya Sheralexonga har yili 120 ming funt sterling miqdoridagi yordam ko'rsatayotgani, Afg'onistonni kuchli davlat qilish orqali Rosiyaga qarshi qo'yishga urinayotgani, Bombeydan olingan telegramaga ko'ra, Badaxshon miri va barcha Turkistondagi qabila boshliqlari Sheralexonga sodiqlik qasamini ichganliklari, inglizlar Balxda ham o'z konsuliklarini ochishmoqchi[9]"-ekanliklari bilan bog'liq ma'lumotlar Rossiya imperiyasi hukmron doiralarida tashvish uyg'otishi tabiiy hol edi.

Tarixiy adabiyotlarning bergan ma'lumotlarida Sheralexon 1869-yili Umbala shahrida Hindistondagi ingliz ma'murlari etakchisi vitse qirol lord Minto bilan uchrashadi. Inglizlar Sheralexonga bu uchrashuvdan so'ng 10 ming miltiq, ikki bataeya to'p va katta miqdordagi moliyaviy yordam beradilar.

Bu mablag'lar va harbiy texnika Afg'onistonning shimoliy chegaralarini mustahkamlash uchun shart qilib qo'yilgan holda beriladi[10]. Bu esa, Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklarini afg'onlar tomonidan istilo qilish jarayonini tezlashtiradi va osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek bekliklari Afg'oniston davlati tomonidan XIX asrning 60-70 yillarida to'liq bo'ynsundirish jarayoni sodir bo'ladi. O'zbek bekliklarining istilo qilinishi esa, bir tomondan Angliya va Rossiya imperiyalarining kelishuvi, ikkinchi tomondan esa, o'zbek bekliklarining o'zaro kurashlari va bir-birini qo'llab-quvvatlamaganliklarida bo'lsa, uchinchi tomondan inglizlarning Afg'oniston amiriga moddiy va harbiy-texnik yordam ko'rsatishi, ruslarning esa, Buxoro amirini tiyib turish siyosati sabab bo'ldi. Rossiya va Angliya davlatlarining mustamlakachilik siyosatlari natijasida ming yillari tarixiy va madaniy jihatdan yagona bo'lgan xalqlar bir-biridan ajralib ketdi. Shimoliy Afg'onistondagi o'zbeklarning urushlar girdobida qolishi, iqtisodiy va madaniy orqada qolishdek bugungi ayanchli ahvoli yuzaga keldi.

REFERENCES

1. Bregel Y. The nev Uzbek states: Bukhara, Khiva and Khokand: c/ 1750-1886//The Cambridge History of Inner Asia: The Chingizidge (Edited by Di Cosmo N., Frank A., Golden P.B/). – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P/ 398.
2. Bregel Y. The nev Uzbek states: Bukhara, Khiva and Khokand: c/ 1750-1886//The Cambridge History of Inner Asia: The Chingizidge (Edited by Di Cosmo N., Frank A., Golden P.B/). – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P/ 56-57.
3. Лэн-Пуль Ст. Мусульманские династии: Хронологические и генеалогические таблицы с историческими введениями/ Стэнли Лэн-Пуль; Пер. с англ. С примеч. Доп. В.В. Бартольда. –Новое изд., Перепеч. С изд. 1899 г. –М.: Вост. Лит.: Муравей, 2004. – С. 47.
4. Bregel Y. The nev Uzbek states: Bukhara, Khiva and Khokand: c/ 1750-1886//The Cambridge History of Inner Asia: The Chingizidge (Edited by Di Cosmo N., Frank A., Golden P.B/). – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P/143
5. Мирза Абдуазим Сами. Тарихи Салотини Манғития. Издание текста, передисловие, перевод и примечания Л.М. Епифановой. – М.: Наука, 1962. – С. 155.
6. Землеведение К. Риттера: география стран Азии находящихся в непосредственных сношениях с Россией Восточный или Китайский Туркестан. Издано императорским русским географическим обществом. – С.-Петербург 1869. //Туркестанский сборник Том. 17. – С. 235.

7. Демезон, Виткевич. Записки о Бухарском ханстве//www.ru-bit.me/books/zapiski-odbuharsskom-hanstve-pead-200262-43.html.
8. Новая история стран зарубежной Азии и Африки. Издание второе, исправленное и дополненное. Допущено министерством высшего и среднего специального образования РСФСР в качестве учебного пособия для университетов. – Ленинград. Издательство Ленинградского университета 1971. – С.135-136.
9. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Очерки Чунгарии и Восточного Туркестана. В древнем и нынешнем состоянии. Часть I-II. Санкт-Петербург. 1829. – С. 9.
10. Лалетин Ю.П. Межэтническое взаимодействие в Афганистане. <https://mgimo.ru/upload/iblock/891/891ca817af5196Ccs5fada903aa5es10>
11. Шарипова Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЦИЗМОВ В РАЗНЫХ ЖАНРАХ СМИ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 57-59.
12. Sharipova N. IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING DESIGN SKILLS IN STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 578-583.
13. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.
14. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 339-342.
15. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.
16. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 842-845.
17. Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 2. – С. 1304-1308.
18. Ahmadov A. DURRONIYLAR DAVLATI VA BUXORO AMIRLIGI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 2. – С. 58-62.

19. Ahmadov A. BXSР VA AFG'ONISTON O'RTASIDAGI SAVDO-SOTIQ
ALOQALARI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – С.
380-383.